

"O`zdonmahsulot" AK

Qishloq xo`jaligi xodimlari Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gulchambarlar qo`ydi



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan dekabr oyining ikkinchi yakshanbasi O`zbekiston Respublikasi qishloq xo`jaligi xodimlari kuni etib belgilandi. Yurtimiz bo`ylab bu yil ilk bor nishonlayotgan ushbu sana «Hosil bayrami» tadbirlari bilan uyg`un o`tmoxqda.

Mustaqilligimiz va taraqqiyotimizning mustahkam huquqiy asosi – Konstitutsiyamiz qabul qilinganiga 25 yil to`ldi. Qo`shaloq bayramlar kuni Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlardan poytaxtimizga tashrif buyurgan agrar sohaning eng ilg`or vakillari Mustaqillik va ezgulik monumenti poyiga gulchambarlar qo`ydi.

- Inson uchun tinchlik va totuvlikdan ko`ra qadrliroq ne`mat yo`q, - deydi Xorazm viloyatining Bog`ot tumanidagi «Bog`ot» fermer xo`jaligi raisi, O`zbekiston Qahramoni Sharifboy Rajabov. - Bugun biz erishayotgan yutuqlar zamirida ana shu buyuk ne`matlar sharofatidan. Ayniqsa, Prezidentimizning qishloq xo`jaligiga, tadbirkorlikni, fermerlik harakatini rivojlantirishga doir sa`y-harakatlari, sohaga bo`lgan yuksak e`tibor o`z samarasini bermoqda. Bugun barchamizda islohotlarimizga daxldorlik hissi, mehnatimiz samarasiga bo`lgan ishonch ortmoqda. Bu jihatlar dehqonu fermerlarimizning chin mehnati tufayli mo`l hosil yetishtirilayotganida ham yaqqol namoyon. Bugungi bayramlar bizni yanada ruhlantirib, yangicha ruhda mehnat qilishga undaydi.

UzA

08.12.2017